

SOLIQ SOLISH MAQSADLARIDA HISOB SIYOSATIDA AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINI AKS ETTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI

Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini hisob siyosatida aks ettirish masalalari yoritilgan. Xususan, soliq solish maqsadlarida hisob siyosati tushunchasiga mualliflik yondashuvi keltirilgan, uning tarkibiy tuzilmasi hamda unda amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yoritib berish taklif etilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: amortizatsiya qilinadigan aktiv, hisob siyosati, soliq solish maqsadlarida hisob siyosati, asosiy vosita, biologik aktiv, nomoddiy aktiv, moliyaviy ijara, buxgalteriya hisobi, amortizatsiya normasi, amortizatsiya usuli.

Аннотация. В статье освещены вопросы отражения учета амортизируемых активов в учетной политике. В частности, представлен авторский подход к понятию учетной политики в целях налогообложения, сформулированы выводы с предложением раскрыть ее структуру и учет амортизируемых активов.

Ключевые слова: амортизируемый актив, учетная политика, учетная политика в целях налогообложения, основное средство, биологический актив, нематериальный актив, финансовая аренда, бухгалтерский учет, норма амортизации, метод амортизации.

Abstract. The article addresses the issues of reflecting depreciable assets in accounting policy. In particular, an author's approach to the concept of accounting policy for tax purposes is presented, and conclusions are formulated with a proposal to reveal its structure and the accounting of depreciable assets.

Keywords: depreciable asset, accounting policy, accounting policy for tax purposes, fixed asset, biological asset, intangible asset, financial lease, accounting, depreciation rate, depreciation method.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida amortizatsiya qilinadigan aktivlar buxgalteriya hisobi subyekti faoliyati uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan aktivlar hisoblanadi. Chunki, ular subyektning ishlab chiqarish salohiyatini belgilab beruvchi moddiy-texnik bazasini shakllantiradi hamda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini hisob siyosatida aks ettirish buxgalteriya hisobi subyektining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini xolis aks ettirish, soliq majburiyatlarini to'g'ri hisoblash va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun obyektiv zarurat hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RQ-599-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri)ni 77-moddasiga [1] muvofiq soliq solish maqsadlarida hisob siyosati 2020-yildan buyon tuziladigan buxgalteriya hisobi subyekti to'laydigan soliqlar bo'yicha soliq bazasini aniqlash, soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish, hisobga olish va soliq hisobotida aks ettirishda konseptual asos hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Albatta, soliqqa tortish maqsadidagi hisob siyosatini shakllantirishning konseptual asoslari, uning me'yoriy-huquqiy tartibga solinishi, tarkibiy tuzilmasi va amaliyotda qo'llash mexanizmiga doir masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari va soha mutaxassislari tomonidan tadqiq qilib o'rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar N.K.Rizayev va J.E.Qurbanbayevlar tomonidan O'zbekistonda hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari xalqaro va milliy tajribaga asoslangan holda tadqiq qilib o'rganilgan. Ular asosan buxgalteriya hisobi maqsadlarida hisob siyosatini shakllantirishda uning umumiy, tashkiliy, texnikaviy va tashkiliy masalalariga to'xtalib o'tishadi. Faqat soliq va soliqqa tortish maqsadlarida ishlab chiqiladigan hisob siyosati O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va moliviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga asoslanishini ta'kidlagan holda uni ishlab chiqishda «daromadlarni tan olishda hisoblash usuli bo'yyicha yuritish; mustaqil ravishda ishlab chiqilgan soliq registrlarining shakli va ularni tuzish; soliq va soliqqa tortish maqsadlarida alohida-alohida hisob yuritish tartibi; foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida sarflarni xarajatlarga olib borish hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishning tanlangan usullari; xedjirlash operatsiyalari va uning samaradorligi darajasini baholash uslubiyati; aktivlarning har bir guruhi va kichik guruhi bo'yicha amortizatsiya me'yorlari (hisoblash usullari)» [6] kabi masalalarni yoritish zarurligini qayd etish bilan cheklanadilar. Fikrimizcha, mualliflar tomonidan soliq va soliqqa tortish maqsadlarida hisob siyosatini ishlab chiqish borasida yondashuvlari asosan MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlariga qaratilgan.

Iqtisodchi olim X.A.Yangiboyevning yozishicha, «Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Hisobi siyosatining uslubiy qismida daromad va xarajatlarni tasnifi, ularni tan olish, mulk va TMZ ni baholash usullari, asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni amortizatsiya ajratmasini hisoblash metodlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq hisobida aks ettirish metodikasi, soliq hisobotini tuzish va tegishli organlarga taqdim etish tartiblari ko'rsatiladi. Ushbu maqsadlar uchun korxonada eng muhim hujjat - hisob siyosati shakllantiriladi» [7]. Bunda iqtisodchi olim soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatining tarkibiy tuzilmasi bo'yicha o'z yondashuvini keltirib o'tmasdan, uning uslubiy qismida yoritib beriladigan masalalarni bayon qilish bilan chegaralangan xolos.

Iqtisodchi olim A.S.Boltayev esa, ilmiy izlanishlari natijalariga asoslanib

“soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatini tadbirkorlik subyekti hisob siyosatining bir qismi yoki uni alohida ichki hujjat shaklida ishlab chiqilishi mumkin” [2] ligini ta’kidlaydi. Biroq, uning fikricha, «hisob siyosatining soliq solish masalalari bilan bog‘liq jihatlari buxgalteriya hisobi obyektlari bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lganligi bois, soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatini alohida hujjat shaklida emas, balki tadbirkorlik subyekti hisob siyosatining bir qismi sifatida kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi» [2]. Shuningdek, iqtisodchi olim tadbirkorlik subyektlari hisob siyosatining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasini taklif etadi. Unda soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati «Soliq hisobi» qismi sifatida qayd etiladi. Hisob siyosatining «Soliq hisobi» qismini tashkiliy, texnik ta’minot va uslubiy masalalar bo‘limiga ajratgan holda tavsiflab beradi.

Soha mutaxassisi D.Saidova soliq solish maqsadlarida hisob siyosati tushunchasini “Soliq hisobi siyosati” deb ta’kidlagan holda uni quyidagicha izohlaydi: «Soliq hisobi siyosati (SHS) – bu soliq to‘lovchining ichki hujjati bo‘lib, unda qabul qilingan soliq hisobi tizimi tasdiqlanadi» [4]. Xuddi shunday yondashuv soliq maslahatchisi G.Ergashova [5] tomonidan ham keltirib o‘tiladi. Biroq, u soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida majburiy tartibda aks ettirilishi kerak bo‘lgan masalalarni amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq keltirib o‘tish bilan cheklanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini hisob siyosatida aks ettirish masalalarini o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig‘ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning o‘quv-uslubiy hamda ilmiy asarlarida soliq solish maqsadlarida hisob siyosati tushunchasiga va uning tarkibiy tuzilmasi borasidagi yondashuvlari ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan holda biz tomonimizdan quyidagicha mualliflik yondashuvi shakllantirildi: “Soliq solish maqsadlarida hisob siyosati deganda amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalaridan buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan tanlab olingan soliq hisobini tashkil etish, yuritish va soliq hisobotini tuzishda qo‘llaniladigan tamoyillar, qoidalar, vositalar, usullar, amallar va shakllar tizimidan iborat ichki tartibga soluvchi hujjat tushuniladi”.

Yuqorida sharhlangan manbalarda soliq solish maqsadlarida hisob siyosati tushunchasiga keltirilgan yondashuvlardan bizning yondashuvimiz quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda soliq hisobini tashkil etish, yuritish va soliq hisobotini tuzish bo‘yicha umumiy qoidalar belgilangan. Shu bois, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlarida keltirilgan tamoyillar, usullar va talablar umumiy qoidalar sifatida keltirib o‘tilgan; buxgalteriya hisobi subyekti o‘zining faoliyat xususiyatini hisobga olgan holda soliq hisobini yuritish va hisobotini tuzishda qo‘llaniladigan tamoyillar, usullar, shakllar va vositalarni tanlab olishi lozim; amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalaridan buxgalteriya hisobi subyekting faoliyat

xususiyatidan kelib chiqqan holda tanlangan tamoyillar, usullar, shakllar va vositalar tizimi buxgalteriya hisobi subyekti rahbarining buyrug‘i bilan rasmiylashtirilib, soliq hisobini yuritish va hisobotini tuzishda qo‘llaniladi. Shu nuqtai-nazardan, soliq solish maqsadlarida hisob siyosati ichki tartibga soluvchi hujjat hisoblanadi.

O‘z navbatida, monografik tadqiqot obyekti bo‘lgan “Taxiatash donmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati (AJ) hisob siyosati va unda amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini aks ettirish masalalari o‘rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi:

birinchidan, “Taxiatash donmahsulotlari” AJda moliyaviy hisob va soliq hisobi maqsadlarida 8 ta qismdan iborat bo‘lgan yagona hisob siyosati ishlab chiqilgan. Ya’ni, soliq solish maqsadlarida hisob siyosati alohida hujjat sifatida shakllantirilmagan;

ikkinchidan, “Taxiatash donmahsulotlari” AJda amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va moliyaviy ijara bo‘yicha olingan aktivlar mavjud bo‘lib, ularni hisobga olish va hisobotda aks ettirish tartibi bo‘yicha qoidalar amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan talablar doirasida umumiy asoslarda yoritib berilgan. Masalan, asosiy vositalarni hisobga olish va hisobotda aks ettirish tartibiga doir qoidalar hisob siyosatining 3 qismida quyidagicha bayon qilingan:

«3. Asosiy vositalarni baholash va hisobga olish tartibi.

3.1. Asosiy vositalar va ularning eskirishi hisobi ishchi schyotlar rejasida nazarda tutilgan tegishli 0100 va 0200-schyotlarda yuritiladi.

3.2. Qiymati eng kam ish haqining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan va foydalanish muddati bir yildan ziyod bo‘lgan obyektlar asosiy vositalar deb e’tirof etiladi.

3.3. Asosiy vositalar 5-son «Asosiy vositalar» BHMSning 11-20-bandlarida belgilangan tartibda aniqlanadigan boshlang‘ich qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

3.4. Asosiy vositalarning eskirishi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya normalariga muvofiq, to‘g‘ri chiziqli usulida hisoblanib, korxona xarajatlariga olib boriladi»;

uchinchidan, hisob siyosatida qo‘llaniladigan boshlang‘ich hujjatlar shakllari, hujjatlar aylanish qoidalari va reja grafigi, hisob registrlari va shakllari, ichki hisobotlar, buxgalteriya hisobi obyektlari, tan olish, baholash, hisobga olishning tanlab olingan usullari va ularni moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi harakati hisobda aks ettirish va soliq solish masalalari bo‘yicha yondashuvlar aks ettirilmagan.

Fikrimizcha, “Taxiatash donmahsulotlari” AJning hisob siyosati umumiy asoslarga ko‘ra bunday shakllantirilishi to‘g‘ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, bunday yondashuv axborotdan foydalanuvchilarni amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotda aks ettirish bo‘yicha ishonchli va o‘rinli axborotlar bilan to‘liq ta’minlab bermaydi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi obyektlarini, jumladan amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini soliq solish maqsadlarida hisob siyosatining “Soliq hisobi” qismi “Uslubiy masalalar” bo‘limida quyidagicha ochib berish maqsadga

muvofoq hisoblanadi:

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobi:

- amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobiga doir atamalar tavsifi;
- amortizatsiya qilinadigan aktivlar tasnifi;
- amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olish va hisobotda aks ettirishning me'yoriy-huquqiy asoslari;
- amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olishning asosiy tamoyillari, qoidalari, usullari, vositalari va shakllari.

1. Asosiy vositalar: asosiy vositalarning tasnifi; tan olish va baholash; amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibidan chiqarish tartibi; asosiy vositalarni tiklash qiymatini aniqlash tartibi; qadrsizlanishini hisobga olish; amortizatsiya hisoblash normalari; amortizatsiya hisoblash usullari; asosiy vositalar bo'yicha investitsiyaviy chegirmani qo'llash tartibi; foydali xizmat muddatini belgilash tartibi; amortizatsiya hisoblash va uni to'xtatish muddatlari; asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va tan olish; amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish; amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya summasi va ularning qoldiq qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni "Asosiy vositalarning amortizatsiyasi hisob-kitobi ma'lumotnomasi" da aks ettirish va taqdim etish tartibi.

2. Biologik aktivlar: biologik aktivlarning tasnifi; tan olish va baholash; biologik aktivlarni amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibidan chiqarish tartibi; tiklash qiymatini aniqlash tartibi; qadrsizlanishini hisobga olish; amortizatsiya hisoblash normalari; foydali xizmat qilish muddatini belgilash tartibi; amortizatsiya hisoblash usullari; amortizatsiya hisoblash va uni to'xtatish muddatlari; biologik aktivlarga amortizatsiya hisoblash va tan olish; amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish tartibi; biologik aktivlarning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya summasi va ularning qoldiq qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni "Asosiy vositalarning amortizatsiyasi hisob-kitobi ma'lumotnomasi" da aks ettirish va taqdim etish.

3. Nomoddiy aktivlar: nomoddiy aktivlar tasnifi; tan olish va baholash; foydali xizmat muddatini belgilash tartibi; qadrsizlanishini hisobga olish; amortizatsiya hisoblash normalarini belgilash; amortizatsiya hisoblash usullari; amortizatsiya hisoblash va uni to'xtatish muddatlari; amortizatsiya hisoblash va tan olish tartibi; nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish tartibi; nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan eskirishi va qoldiq qiymati to'g'risidagi o'zgarishlarni amortizatsiya qilinadigan va foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar ko'rinishida tasniflagan holda «Nomoddiy aktivlar amortizatsiya xarajatlarini hisob-kitobi ma'lumotnomasi» da aks ettirish va taqdim etish tartibi.

4. Moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo'yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktiv: moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo'yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlar tasnifi; tan olish va baholash; amortizatsiya hisoblash normalari; amortizatsiya hisoblash usullari; foydali xizmat

muddatini belgilash tartibi; amortizatsiya hisoblash va uni to'xtatish muddatlari; amortizatsiya hisoblash va tan olish; amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish; moliyaviy ijaraga shartnomasi (lizing shartnomasi) bo'yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlar boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya summasi va ularning qoldiq qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirish va taqdim etish tartibi.

5. Ijaraga beruvchining roziligi asosida ijaraga olingan va (yoki) bepul foydalanish shartnomasi bo'yicha qabul qilingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga nisbatan amalga oshirilgan, ajratib bo'lmaydigan yaxshilash shaklidagi kapital qo'yilmalar: ijaraga olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga va (yoki) bepul foydalanish shartnomasi asosida olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga kiritilgan kapital qo'yilmalarni amortizatsiya qilish tartibi; kapital qo'yilmalarni tan olish va baholash; amortizatsiya hisoblash normasi va hisoblash usuli; kapital qo'yilmalarning amortizatsiyalanadigan qiymatini qoplash muddatini belgilash tartibi; amortizatsiya hisoblashni boshlash va uni to'xtatish muddatlari; amortizatsiya summalarini hisoblash va ularni tan olish tartibi; amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish; ijaraga olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga va (yoki) bepul foydalanish shartnomasi bo'yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga kapital qo'yilmalarni amortizatsiya hisoblanadigan boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya summasi va ularning qoldiq qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirish va taqdim etish tartibi.

6. Buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini qurish xarajatlari: ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini qurish xarajatlarini amortizatsiya qilinadigan aktiv sifatida e'tirof etilishini asoslash; ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini qurish xarajatlarini amortizatsiya qilinadigan aktiv sifatida tan olish va baholash, amortizatsiya hisoblash normasi va hisoblash usuli; ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini qurish xarajatlarining amortizatsiyalanadigan qiymatini qoplash muddatini belgilash; amortizatsiya hisoblashni boshlash va uni to'xtatish muddatlari; amortizatsiya summalarini hisoblash va ularni tan olish tartibi; amortizatsiya hisoblash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish; amortizatsiya qilinadigan aktiv sifatida tan olingan ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini qurish xarajatlarini amortizatsiya hisoblanadigan boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya summasi va ularning qoldiq qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirish va taqdim etish tartibi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi subyektining soliq solish maqsadlarida hisob siyosatida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olish tartibi yuqoridagi kabi yoritib berilishi, axborotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli, sodda, ishonchli va ahamiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini hisob siyosatida aks ettirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan ta'riflar hamda xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining yondashuvlari o'rganilgan holda "soliq solish maqsadlarida hisob siyosati" tushunchasiga mualliflik yondashuvi shakllantirildi. Shuningdek, o'rganilgan manbalarda "soliq solish maqsadlarida hisob siyosati" tushunchasiga berilgan ta'rif va yondashuvlardan farqli jihatlari asoslab berildi;

- soliq solish maqsadlarida hisob siyosatini shakllantirish bo'yicha iqtisodchi olimlarning yondashuvlari va monografik tadqiqot obyekti bo'lgan "Taxiatash donmahsulotlari" AJning hisob siyosatini tanqidiy tahlil qilib o'rganish asosida uning takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi taklif etildi;

- soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobida e'tirof etish mezonlari, ularning boshlang'ich qiymatini shakllantirish tartibini, amortizatsiya hisoblash usullari va normalarini, shuningdek amortizatsiyalanadigan qiymatni qoplash muddatlarini aniq belgilash orqali soliq hisobining metodologik asosini tashkil etadi. Shu bois, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini soliq solish maqsadlarida hisob siyosatining "Soliq hisobi" qismining "Uslubiy masalalar" bo'limida yoritib berish tartibi taklif etildi. Mazkur yondashuv amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobida to'g'ri, qonuniy va izchil tarzda hisobga olishda uslubiy asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). <https://lex.uz/docs/4674902>
2. Boltayev A.S. Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – T.: 2025. – 63 bet.
3. Buxgalteriya va soliq solish (bss.uz) sayti. Soliq hisob siyosati – 2026-yil uchun namuna va tavsiyalar. <https://www.bss.uz/article/2780>
4. Saidov D. Soliq hisobi siyosatini qanday tuzish kerak. buxgalter.uz. sayti. https://buxgalter.uz/uz/soliq_iqtisod_siesati/soliq_hisobi_siesatini_qanday_tuzish_kerak_1_kirish_qismi
5. Ergashova G. Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatining mavjud emasligi uchun jarima solishadi buxgalter.uz. sayti. <https://buxgalter.uz/uz/publish/doc/text163632>
6. Qurbanbayev J.E., Rizayev N.K. O'zbekistonda hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali I-son, 2025. 341-352 betlar.
7. Yangiboyev X.A. Bevosita soliqlarning hisobini takomillashtirish. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali. VII-son, 2023. 458-465 betlar.